SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA LAYLO MEHROJIDDINOVNA

TALABALARNING NEMIS TILIGA QIZIQISHLARIDA TA'LIM PLATFORMALARI INTEGRATSIYASI

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.3:811.112.2

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the dissertation abstract for the Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Sharipova Laylo Mehrojiddinovna
Talabalarning nemis tiliga qiziqishlarida ta’lim platformalari integratsiyasi.....5

Шарипова Лайло Мехрожиддиновна
Интеграция образовательных платформ в повышении интереса студентов к изучению немецкого языка 29

Sharipova Laylo Mehrojiddinovna
The Integration of Educational Platforms in Fostering Students’ Interest in Learning the German Language 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 63

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA LAYLO MEHROJIDDINOVNA

TALABALARNING NEMIS TILIGA QIZIQISHLARIDA TA'LIM PLATFORMALARI INTEGRATSIYASI

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped 11574 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sattarov Utkir Urazaliyevich** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ilyasov Ibodulla** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
	Sarimsoqova Dilafruz Muxammadjonovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “23” noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66783 -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “5” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “5” noyabr dagi №20 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, xorijiy til ta’limini raqamlashtirish hamda ta’lim platformalaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonining interaktivligi, individualligi va talaba faolligini ta’minlash masalalari zamonaviy xorijiy til o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda turli ta’lim platformalarining imkoniyatlarini talabalarning nemis tiliga bo‘lgan qiziqishi, o‘quv motivatsiyasi, individual ehtiyojlari va til o‘rganish xususiyatlari bilan uzviy bog‘lashning metodik asoslari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi ta’lim samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli talabalarning nemis tiliga qiziqishini kuchaytirishda ta’lim platformalarini integratsiyalashning didaktik modeli, metodik ta’minoti hamda talabalarning o‘quv faolligi va motivatsion holatini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy-amaliyotida nemis tilini o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim platformalari, mobil ilovalar, multimedia resurslari, virtual ta’lim muhiti, gamifikatsiya elementlari hamda interaktiv topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talabalarning o‘quv motivatsiyasi, darsdagi ishtiroki, mustaqil ta’limga jalb etilishi, kommunikativ faolligi, raqamli kompetensiyasi hamda individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida nemis tilini o‘rganishga qiziqishni kuchaytiruvchi adaptiv ta’lim platformalarini yaratish, gamifikatsiya va interaktiv raqamli kontent asosida talabalarning barqaror motivatsiyasini shakllantirish, ta’lim platformalaridan foydalanish jarayonida o‘quv faolligini monitoring qilish hamda platformalar integratsiyasining uzoq muddatli motivatsion samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni, xususan, nemis tilini o‘qitish sifatini oshirish, raqamli ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish, talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Bu borada talabalarning nemis tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirishda ta’lim platformalarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turli raqamli resurslarni yagona ta’lim muhitiga integratsiyalash, talabalarning individual o‘quv ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga oluvchi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularni oliy ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr.https://president.uz/uz/lists/view/8582

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda til o‘qitish metodikasiga oid masalalar quyidagi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan: J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, L.T.Axmedova, M.T.Iriskulov, D.U.Xashimova, I.M.Tuxtasinov, G.N.Irmuxamedova, G.T.Maxkamova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, U.U.Sattarov, A.Y.Nurmuratov[2] va boshqalar.

Integrativ yondashuv va pedagogik integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari dunyo va MDH olimlaridan M.Adamko, N.Kopilova, V.Shirshov,

[2] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. (2012). Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ. – 120 с; Джусупов М. (2009). Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Москва: Русский язык за рубежом. – 230 с; Аҳмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. Ташкент. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T., 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Toshkent. Ped. fan. dok diss. (DSc).–T., 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах экономических вузов): дис.кан.пед.наук. –Т., 2008. –208 с.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: илмий-амалий конф. материал. –Т., 2009. –150 с.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) . Jizzax-2021. 89 s.; A.E.Rustamova Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) ped. fan. dok. avtoreferati (DSc)-Toshkent-2025. 64 s.; U.U.Sattarov Yangi avlod o‘quv adabiyotlarini takomillashtirish (Monografiya) Samarqand – 2025. – 116 b.
A.Y.Nurmuratov Masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi: ped. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. – 63 s.

E.Sisoyeva, I.Krestinskiy, M.Boroznets, Z.Ukolova, F.Krillova, A.Toykina[3] va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan.

Xorij olimlaridan Vera Busse – aynan nemis tilini o‘rganuvchi talabalar motivatsiyasini o‘rganish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Busse 59 nafar universitet talabasi bilan bir o‘quv yili davomida nemis tilini xorijiy til sifatida o‘rganish motivatsiyasini tadqiq qilgan. Ideal L2 Self, instrumental motivatsiya va topshiriqqa oid self-efficacy talabalarning o‘rganishga sarflaydigan harakati bilan bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotda, ayniqsa, ayrim talabalarning gapirish va tinglashga oid o‘z imkoniyatlariga ishonchi pasaygani aniqlangan. Muallif talabalar self-efficacy, ya’ni “men bu vazifani bajara olaman” degan ishonchini qo‘llab-quvvatlash motivatsiya uchun muhimligini ko‘rsatadi. Bu platformalardagi bosqichma-bosqich mashqlar, natijani darhol ko‘rsatish va muvaffaqiyat holatini yaratish g‘oyasi bilan bevosita bog‘lanadi.

Asuman Yaprak 2025-yilda nemis tilini o‘rganish motivatsiyasiga bag‘ishlangan tizimli ilmiy sharhni e’lon qilgan. Mazkur sharh tadqiqotning nazariy asoslari uchun muhim ahamiyatga ega. Yaprak Web of Science va Scopus bazalaridagi nemis tilini o‘rganish motivatsiyasiga oid 51 ta tadqiqotni PRISMA asosida tahlil qilgan. Sharh natijasiga ko‘ra, German as a Foreign Language bo‘yicha zamonaviy motivatsiya tadqiqotlarida Dörnyeining L2 Motivational Self System modeli muhim nazariy o‘rin tutadi; shuningdek, motivatsiyani oshiruvchi va pasaytiruvchi omillarni aniqlashga katta e’tibor berilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat universiteti fakultetlararo pedagogika kafedrasining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Uzluksiz ta’limni rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari” mavzusidagi fundamental loyihaning faoliyati doirasida bajarilgan.

---

[3] Адамко М. А. Содержательные аспекты интегративного подхода в вузовском процессе изучения английского языка //Вестник Тверского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. – 2016. – №. 3. – С. 96-104.; Копылова Н. А. Интегративная технология смешанного обучения //Актуальные проблемы авиации и космонавтики. – 2017. – Т. 3. – №. 13. – С. 1167-1169.; Ширшов В. Д., Романова И. Н. Использование интегративного подхода в обучении иностранному языку курсантов государственной противопожарной службы МЧС России //Дискуссия. – 2014. – №. 8 (49). – С. 146-152.; Сысоева Е. Э. Интегративный подход в процессе профессиональной подготовки учителя иностранного языка //Иностранные языки в школе. – 2006. – №. 4. – С. 81-86.; Крестинский И. С. Формирование интегративного подхода к обучению иностранным языкам в западноевропейской педагогике второй половины XX века. – 2007.; Борозенец Г. и др. Концептуальные подходы к построению модели формирования иноязычной коммуникативной компетентности будущих специалистов //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2004. – №. 1. – С. 93-105.; Борозенец Г. К. и др. Интегративный подход к формированию коммуникативной компетентности студентов неязыковых вузов средствами иностранного языка. – 2005. Уколова З. С. Интегративный подход к формированию коммуникативной компетенции студентов в профессионально-иноязычной подготовке : дис. – Самара, 13.00. 01/Уколова Зоя Сергеевна, 2006.; Кириллова Ф. М. Интегративный подход к обучению немецкому языку в учреждениях дошкольного образования //Russian Agricultural Science Review. – 2015. – Т. 6. – №. 6-3. – С. 173-176.; Тойкина О. В. Реализация интегративного подхода при обучении немецкому языку как второму иностранному //Многоязычие в образовательном пространстве. – 2010. – №. 2. – С. 108-117.; Крестинский И. С. Интегративная лингводидактика как перспективное направление модернизации языкового образования //Вестник Тверского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. – 2014 . – №. 3. – С. 91-100.; Новикова Л. В. Интеграция онлайн-курса в преподавание лингвострановедения: практика применения и адаптации на примере немецкого языка //Актуальные вопросы гуманитарных и социальных наук: от теории к практике. – 2023. – С. 134-136;

Tadqiqotning maqsadi integrativ yondashuv asosida talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, shu asosda mustaqil fikrlash, mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

integrativ ta’lim usullaridan foydalanish asosida talabalarda xorijiy tillarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda tizimlashtirish;

integrativ yondashuv asosida nemis tilini o‘zlashtirish jarayonining dinamikasini aniqlash, uning rivojlanish bosqichlari va samaradorlik omillarini ilmiy jihatdan asoslash;

o‘lkashunoslik va grammatik materiallar integratsiyasiga asoslangan holda talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishning didaktik ahamiyatini ochib berish;

zamonaviy internet xizmatlari (jumladan, Kahoot, Padlet hamda Schubert onlayn topshiriqlar platformasi) integratsiyasi asosida nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim jarayonida talabalarni nemis tiliga qiziqtirishda ta’lim platformalari integratsiyasidan foydalanish jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini talabalarni nemis tiliga qiziqtirishda ta’lim platformalari integratsiyasidan foydalanishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kahoot platformasining gamifikatsion imkoniyatlariga asoslangan interaktiv-motivatsion yondashuv konseptuallashtirilib, “raqamli rag‘bat → faol ishtirok → tezkor natija → motivatsion mustahkamlash” dinamikasi orqali talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilganlik darajasini va nemis tilini o‘rganishga qiziqishini oshirish didaktik jihatdan asoslab berilgan;

Padlet platformasi asosidagi hamkorlik-kreativ metodikasi takomillashtirilib, “individual fikr → raqamli ifoda → hamkorlikdagi faoliyat → kommunikativ mahsulot” ketma-ketligi asosida talabalarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirish va nemis tilidagi kommunikativ faoliyatga qiziqishini faollashtirish shartlari aniqlashtirilgan;

talabalarning nemis tilini mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun Schubert Online platformasiga asoslangan individual-mashqiy ta’lim modeli ishlab chiqilib, “o‘zlashtirish darajasi → individual topshiriq → mustaqil mashqlanish → o‘z-o‘zini nazorat qilish” bog‘liqligi asosida ta’lim mazmunini talabaning o‘zlashtirish sur’atiga moslashtirish orqali individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlari belgilangan**;**

talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Kahoot–Padlet–Schubert Online platformalarining integrativ-didaktik modeli ishlab chiqilib, “motivatsion faollashtirish → hamkorlikdagi kommunikatsiya → individual

mashqlanish → refleksiv mustahkamlash” sikli asosida platformalarning funksional imkoniyatlarini yagona raqamli ta’lim muhitida uyg‘unlashtirish orqali qiziqishni uzluksiz rivojlantirishning metodik yaxlitligi ta’minlangan**.**

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak mutaxassislar uchun nemis tilidan o‘quv-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda psixologik-pedagogik treninglar namunalari ishlab chiqildi;

talabalarni nemis tiliga qiziqtirishning innovatsion va integrativ shakllar, metodlar hamda vositalar ishlab chiqildi;

nemis tili ta’limida ilg‘or pedagogik innovatsiyalar va integrativ yondashuvga doir o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi;

bo‘lajak mutaxassislarning nemis tilini o‘zlashtirishlari uchun o‘quv-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o‘quv-metodik ta’minoti yaratilgan hamda foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ta’lim platformalari integratsiyasi asosida talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari takomillashtirilgani, ta’lim platformalarining interaktivlik, individuallashtirish, kommunikativ faollik va o‘quv motivatsiyasini oshirishdagi didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangani hamda talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan metodik model ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta’lim platformalarini integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik ta’minot, interaktiv topshiriqlar tizimi, raqamli o‘quv resurslari, metodik tavsiyalar va diagnostik baholash vositalarini nemis tili mashg‘ulotlariga joriy etish orqali talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, o‘quv faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va kommunikativ ishtirokini rivojlantirish hamda nemis tili ta’limining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ yondashuv asosida talabalarning nemis tiliga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasi tadqiqi jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

Kahoot platformasining gamifikatsion imkoniyatlariga asoslangan interaktiv-motivatsion yondashuv konseptuallashtirilib, “raqamli rag‘bat → faol ishtirok → tezkor natija → motivatsion mustahkamlash” dinamikasi orqali talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilish va nemis tilini o‘rganishga qiziqish darajasini oshirish didaktik jihatdan asoslab berilganligi haqidagi xulosalardan Ispaniyaning Valensiya shahridagi IES ABASTOS oliy ta’lim muassasasida Erasmus+ KA171 Oliy ta’lim mobilligi 2024-1-ES01-KA171-HED-000195660 loyihasi doirasida foydalanilgan (Ispaniyaning Valensiya shahridagi IES ABASTOSning 2026-yil 31-maydagi

ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ishda ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy xorijiy til ta’limi metodikasini boyitishga, integratsiyalashgan ta’lim platformalaridan samarali foydalanish tajribasini kengaytirishga xizmat qilmoqda;

Padlet platformasi asosidagi hamkorlik-kreativ metodikasi takomillashtirilib, “individual fikr → raqamli ifoda → hamkorlikdagi faoliyat → kommunikativ mahsulot” ketma-ketligi asosida talabalarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirish va nemis tilidagi kommunikativ faoliyatga qiziqishini faollashtirish shartlari aniqlashtirilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan 2022–2025-yillarda amalga oshirilgan “Erasmus+ International KA107 Credit Mobility. Key Action 1 – Mobility for Learners and Staff- Higher Education Student and Staff Mobility” xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 17-iyuldagi 01-4/2529-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ishda ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy xorijiy til ta’limi metodikasini boyitishga xizmat qilmoqda;

talabalarning nemis tilini mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun Schubert Online platformasiga asoslangan individual-mashqiy ta’lim modeli ishlab chiqilib, “o‘zlashtirish darajasi → individual topshiriq → mustaqil mashqlanish → o‘z-o‘zini nazorat qilish” bog‘liqligi asosida ta’lim mazmunini talabaning o‘zlashtirish sur’atiga moslashtirish orqali individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlari belgilanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil 4-yanvar kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 13-yanvardagi 01-07/10-son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish nutqiy faoliyatni boyitish hamda til o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi ta’kidlangan;

Kahoot platformasining gamifikatsion imkoniyatlariga asoslangan interaktiv-motivatsion yondashuv konseptuallashtirilib, “raqamli rag‘bat → faol ishtirok → tezkor natija → motivatsion mustahkamlash” dinamikasi orqali talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilish va nemis tilini o‘rganishga qiziqish darajasini oshirish didaktik jihatdan asoslab berilgan; Tadqiqotda ta’lim platformalari integratsiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda ularni oliy ta’lim jarayonida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari izchil yoritilgan xulosalardan 2023–2025-yillarda bajarilgan IL27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida amaliyotda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 21-sentyabrdagi 11-25/895-son ma’lumotnomasi) Natijada, integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda psixologik-pedagogik treninglar namunalari til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 5 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnal maqolasi e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi jihatidan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 123 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinganligi aprobatsiyasi va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Chet til ta’limida integrativ yondashuvdan foydalanishning nazariy asoslari” deb nomlangan bo‘lib unda chet tillarini o‘rganish kontekstida mintaqaviy tilshunoslik o‘quv predmeti sifatida an’anaviy ravishda o‘rganilayotgan tilning mamlakati, uning geografik, iqtisodiy, madaniy xususiyatlari, tarixiy rivojlanish bosqichlari kabilar to‘g‘risidagi katta hajmdagi ensiklopedik ma’lumotlarni taqdim etish, qayta ishlash va o‘zlashtirish bilan bog‘liq axborot-tahliliy yondashuv haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jamiyat rivoji uchun foyda keltiradigan tajribali, o‘zini har sohada nazorat qila oladigan yosh kadrlar bugungi kunda juda ham zarur. OTMlar jamiyatning hozirgi hayotini o‘zgartirishga hissa qo‘shadigan yaratuvchan ijodkor, yoshlar, novatorlarni yetishtirib berishi lozim. Bunga erishish uchun esa OTMlar mutaxassis shaxsini hurmat qilgan holda, hamisha ularga ko‘maklashishlari talab etiladi. Chet tili ta’limi tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik innovatsiyalarni amalda joriy etish bugungi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. OTMda ta’lim va tarbiyani integrativlash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarb bo‘lib, buning uchun so‘nggi paytda bir qancha yondoshishlar bo‘lgani belgilab olingan: bunga didaktika va metodika ham hali tayyor emasligi ma’lum bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda ushbu masalalar asosini chet tili bo‘yicha bilimlar tashkil etuvchi integrativlangan ma’lumotlar yaratish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi. Ushbu jarayonda integratsiyalashgan darslardan samarali foydalanish masalasiga kelganda tajribali mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan integratsiyalashgan darslar, ularning turli uslublari va tavsiyalari belgilab olinishi lozim. Integrativlashgan darslar mazmun mohiyatini muhimligini aniqlab, talabalarning shaxs sifatida shakllanishiga va ularning intellektual qobiliyatini o‘stirishiga imkoniyatlar yaratilishi mumkin ekanligini aniqlash maqsad qilib olinishi kerak.

Chet til o‘rganish jarayonida qiziqishning tavsifi va ahamiyati haqidagi mavzuni yoritishda, avvalo, til o‘rganishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish lozim. Til o‘rganishga ta’sir etuvchi omillarni asosan ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ijobiy ta’sirga ega bo‘lgan omillar o‘rganish jarayonining asosiy omillari hisoblanadi va o‘rganish jarayonidagi o‘zlashtirish samaradorligining ortishiga sabab bo‘ladi. Til o‘rganishga ta’sir

etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ham ajratiladi. H.Huneke va V.Shtayniglarning qayd etishicha, ichki omillarga quyidagilar kiradi[4]:

1. Til o‘rganuvchining yoshi;
2. Til o‘rganilayotgan mamlakatdagi shu tilga bo‘lgan munosabat, ona tilining ta’siri;
3. Motivatsiya va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va qobiliyat;
4. O‘rganish uslublari, o‘rganuvchilar tiplari hamda o‘rganish strategiyalari.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, nemis tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirishda innovatsion va integrativ ta’lim usullaridan foydalanish aynan o‘rganishga ta’sir etuvchi muhim omillarning o‘zaro integratsiyasi ekan. Qiziqishning o‘rganish jarayonidagi ahamiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlariga alohida to‘xtalishdan oldin, yuqorida keltirilgan omillarga ham qisqacha to‘xtalib o‘tishni ma’qul ko‘rdik. Dastlabki omil til o‘rganuvchining yoshi bo‘lib, bu omil til o‘rganish jarayoniga kuchli ta’sir etadi. H.Huneke va V.Shtayniglarning qayd etishicha, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar boshqa mamlakatga ko‘chib kelganlarida shu mamlakat tilini aksentsiz o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. 15 yoshdan yuqori til o‘rganuvchilar esa o‘rganish jarayonida ko‘proq qiyinchiliklarga uchrashadi. Til o‘rganish muddatlari ham yosh ulg‘aygani sari cho‘zilib boraveradi[5]. Nemis tilini o‘rgatish va o‘rganishda qiziqish hamda motivatsiyaning ahamiyati K.Kirxner, J.Sheible, Y.Kieshauer kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritib berilgan[6]. Lekin shunga qaramay nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda innovatsion hamda integrativ yondashuvning ahamiyati to‘liq tadqiq etilmagan. Bu esa o‘z o‘rnida mavzuning monografik jihatdan tadqiq etilishini taqozo etadi.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida birinchi chet tili ingliz tili bo‘lgan talabalarga o‘rgatishda juda ko‘p qiziqarli innovatsion va integrativ ta’lim usullaridan foydalanish mumkin. Ma’lumki, ingliz va nemis tillarining juda ko‘p grammatik, leksik, morfologik va boshqa o‘xshash xususiyatlari mavjud. Ulardan o‘z o‘rnida hamda unumli foydalana olish zarurdir. Albatta bu jarayonda nemis tili o‘qituvchisidan ham ingliz tilida ma’lum bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Agar o‘qituvchi o‘zi ingliz tilida bilimga ega bo‘lmasa, bu jarayonda guruhdagi ilg‘or talabalarning bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yishi ham mumkin. Bizning fikrimizcha, talabalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning pasayib ketishiga til o‘rganish jarayonining murakkabligi sabab bo‘ladi. Shunday murakkabliklarni bartaraf etishda talabalarga nemis va ingliz tillarida juda ko‘p o‘xshash so‘zlar mavjudligini va ularni innovatsion usullar yordamida nisbatan oson tarzda o‘rganishlari mumkinligini ko‘rsata bilish lozim. Talabalardagi qiziqishlarning shunday keng ko‘lamda bo‘lishi fanni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda juda

[4] Huneke H., Steinig W. *Deutsch als Fremdsprache. Eine Einführung*. 6., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2013. S.12

[5] Huneke H., Steinig W. *Deutsch als Fremdsprache. Eine Einführung*. 6., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2013. S.14

[6] Kirchner K. Motivation beim Fremdsprachenerwerb. Eine qualitative Pilotstudie zur Motivation schwedischer Deutschlerner //Zeitschrift für interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 2004. – Т. 9. – №. 2.; Scheible J. A., Rother N. Schnell und erfolgreich Deutsch lernen-wie geht das? Erkenntnisse zu den Determinanten des Zweitspracherwerbs unter besonderer Berücksichtigung von Geflüchteten. – 2017.; Kießhauer J. Die Krise in Spanien und das Interesse an der deutschen Sprache : дис. – Westsächsische Hochschule Zwickau, 2013.

qo‘l keladi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilayotgan ma’lumotlarni qiziqish bilan qabul qiladilar. Bundan tashqari bunday tipdagi talabalar o‘qituvchi bergan ma’lumotlarini o‘z bilimlari bilan to‘ldirib, boshqalarni ham qiziqtirishga harakat qiladilar. Talabalarni til o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda o‘qituvchi tomonidan beriladigan motivatsiya ham muhim rol o‘ynaydi. Buni bir qator tadqiqotchilar ham ta’kidlaydilar[7].

Nemis metodisti S. Riymer til o‘rganuvchilarning qanchalik motivatsiyasi yuqori bo‘lsa, shuncha ko‘zlangan maqsadga tez erishishlarini alohida ta’kidlab o‘tadi[8]. Nemis metodist olimlari M. Shart va M. Legutke motivatsiya asosidagi namunali dars deganda qanday darsni tushunish mumkin degan savolga quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

- Sinf xonasi yoki auditoriyaning jihozlanishi dars o‘tishga talab darajasida bo‘lishi;
- Darsdagi muhit o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi;
- Dars rang-barang bo‘lishi va o‘rganishga yo‘naltirilishi;
- Dars aniq tizimlashtirilishi, mazmun va mohiyati tushunarli ifodalanishi;
- Dars ma’lum kompetensiyalarga yo‘naltirilishi va Umumevropa tillarni egallash talablariga mos kelishi;
- Dars mustaqil va faol o‘rganishga qaratilishi;
- Darsga mumkin qadar barcha jalb qilinishi;
- Darsga mos turli uslublar va ijtimoiy shakllar qo‘llanilishi;
- Dars til o‘rganuvchilarning talab va imkoniyatlariga mos kelishi;
- Dars til o‘rganuvchilarning bilim darajalariga mos kelishi lozim deb uqtirib o‘tadi[9].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida integrativ tushuncha g‘oyasi ilg‘or g‘oyalar qatori qadrlana boshlandi. Taniqli ta’lim islohotchisi J. Dyui[10] farzandni quyosh qatori qo‘yib, uni pedagogika markazi deb, o‘quv dasturlarini takomillashtirishning yangi tamoyillarini ilgari suradi. Bunga “Go‘dakdan-olamga, olamdan-go‘dakka” tezisi misol bo‘la oladi. Keyinchalik markazlashtirilgan fanlar o‘ziga bolaning ongini kengaytiruvchi mavzularni ham qamrab ola boshladi. Bola ulg‘aygan sari uning dunyoqarashi kengayib, ongida oila, tuman, shahar, mamlakat, ta’lim, insoniyat, koinot kabi tushunchalar paydo bo‘la boshlaydi va ilm darajasi ham o‘sib boradi. XX asr boshlarida pedagogika yo‘nalishida bilimlarni integratsiyalash mavzusi bo‘yicha bir nechta e’tiborni tortuvchi qiziqarli tadqiqotlar amalga

---

[7] Лазарева О. П. Повышение познавательного интереса и учебной мотивации к изучению иностранных языков в университете //Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2017. – №. 2. – С. 39-45.; Быстрай Е. Б., Скоробренко И. А. Формирование познавательного интереса будущих учителей к изучению иностранного языка с использованием кейс-стади //Теоретические и прикладные аспекты лингвообразования. – 2019. – С. 146-150.; Кубеева М. А. Роль мотивации в повышении интереса к урокам английского языка //Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2018. – Т. 7. – №. 2 (23). – С. 134-137.; Спирина Е. М., Чернякова Ю. С. Эффективные способы стимулирования познавательного интереса на уроках иностранного языка //Концепт. – 2019. – №. 5. – С. 2-12.; ТОХТИЕВА Э. А. Роль игровых технологий в формировании познавательного интереса учащихся к изучению английского языка //Вестник Северо-Осетинского государственного университета имени КЛ Хетагурова. – 2014. – №. 4. – С. 288-291.; Волкова С. Л. Проблема развития познавательного интереса студентов к иностранному языку //Вестник Ленинградского государственного университета им. АС Пушкина. – 2010. – Т. 3. – №. 1. – С. 89-99.

[8] Riemer C. Motivation.- Kallmezer: Klett, 2010. - 169 S.

[9] Schart M.und Legutke M. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung. -Stuttgart, 2012. - 53 S.

[10] Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – М.: Карапуз, 2009. –С. 122.

oshirildi. Bu yo‘nalishda, ayniqsa, chet tili ta’limi sohasida ilg‘or siljishlar ro‘y bera boshladi. Ayniqsa, N. Azizxodjayeva, Sh, Shodmonova O‘. Tolipov, R.Mavlonova N.Rahmonqulovalarning “Chet tili ta’limi pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” darsliklari ham katta ahamiyatga ega bo‘lganligi barchamizga ma’lum.

Integratsiyalashgan darslar talabalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o‘rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, darslarning integratsion bog‘lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo‘lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o‘rtasida bahsli masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi taraqqiyoti, ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integrativ differensatsiya bilan uzviy bog‘liqdir. Bu uzviylik talabalarda olayotgan bilimlarini anglashga bo‘lgan intilishlari tizimini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Olimlarning ta’kidlashlariga ko‘ra pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Uzviylik – o‘zlashtirilgan bilim ko‘nikma va malakalarni asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammalashib borishini ko‘zda tutadi[11]. Predmetlararo aloqadorlik – o‘zining mohiyatiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

O‘zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko‘ra ikki o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorliklarni, ya’ni birinchi o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ish harakat usullarini ikkinchisida qo‘llashi va aksincha qo‘llanilishini ifodalaydi. Integrativ aloqadorlik – esa nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo‘lib, avval zikr etilganlaridan o‘quv dasturiga maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi va albatta uni ta’minlashni talab etadi. Keltirilgan tahlillar ta’sirida chet tili mutaxassisi o‘z fanini mukammal bilishidan tashqari boshqa fanlar doirasida ham yangi bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozimligini talab etmoqda deb qat’iy aytishimiz mumkin. Nemis tili mutaxassislari talabalar ruhiyatini pedagogik-psixologik talablar doirasida o‘zlashtirib, har bir talabaga alohida shaxs sifatida munosabatda bo‘lib, darsni o‘zlashtirishi, talab darajasidagi ko‘nikma va mahoratni shakllantirish muammosini yechishi lozim bo‘ladi. Davr talabi bo‘lmish dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsiya va integratsiyalashgan darslarni ishlab chiqish va o‘qitish va tarbiyalashda qo‘llay bilish ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida integrativ deganda biz yangi faol pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o‘sishni, turli sohalarga oid ma’lumotlarni talabalar ongiga singdirishning qulay usullarini qo‘llash mahoratini tushunamiz. Buyuk xorijlik zamonamiz pedagogi J. Halstedning “Yangi pedagogikani boshqarish” kitobini tahlil qilib, “O‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartiruvchi olti tamoyil” deb nomlangan ilmiy mulohazalarini keltirib o‘tmoqchimiz: “...agar mutaxassislar talabalarni o‘sishlarini xohlasa, ularni o‘rganishini oziqlantiruvchi yetarli tajriba bilan ta’minlashlari lozim. Talabalar

[11] U.U. Jumanazarov, M.H. Azimova. Language Teaching Methodology and Educational Technologies (Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari) SamDCHTI, 2025.

muvaffaqiyat uchun me’yorni tushunishsa, xato va ustunliklari haqida individual maslahatlar olishsa, ta’limda keyingi qadamga madadkorlikni his qilishsa, talabalar yetuk inson bo‘lib komillikka erishadi”. Biz ham olimning ushbu fikrlariga to‘laqonli ravishda qo‘shilamiz deb aytishimiz mumkin.

Nemis tilini o‘zlashtirishda past o‘zlashtiruvchi, mustaqil ishlash malakasi yetarli bo‘lmagan talabalarga o‘qituvchining ishtiroki (murakkabroq mashqlarning va topshirig‘ini bajarish tartibini tushuntirib berish) ta’minlanishi lozim. Yaxshi, talab darajasida o‘zlashtirgan talabalarning boshqa past o‘zlashtirgan ta’lim oluvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshirishda ishtirok etishlari, bizningcha, samarali natija berishi olib borgan tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldi. Nemis tiliga o‘qitishning samarali yo‘llarini izlash lingvokulturologik kompetensiyani ishlab chiqishga olib keldiki, uning markazida til va madaniyatni o‘zaro bog‘liq tarzda o‘rganish g‘oyasi mujassamdir. Tillarni o‘qitishga oid zamonaviy metodika lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishning vazifalaridan biri deb, so‘zlashuvchining barcha madaniy qadriyatlar tizimini yaxshi bilishlarini ta’minlash hisoblanadi. Lingvokulturologik mashg‘ulotlar vositasida o‘qituvchi dunyoning lisoniy manzarasini shakllantirishga ko‘maklashishi, tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniyatini aks ettiruvchi leksika, frazeologizmlar, matnlar bilan tanishtirishi mumkin. Chet tili darslarida lingvokulturologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni o‘z madaniyatiga muhabbatni tarbiyalash, o‘zlikni anglash, boshqa xalqlarning til va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni jahon madaniyatidan xabardor etish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Integrativ yondashuv asosida nemis tilini o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish mazmuni” deb nomlanadi. Ma’lumki, fan mazmuni va til o‘qitishni birlashtiruvchi integrativ yondashuv CLIL deb nomlanadi. CLIL so‘zi *Content and Language Integrated Learning*ning akronim shakli hisoblanadi. Bu termin 1994-yil D. Marsh tomonidan shakllantirilgan. A. Milovidovaning ta’rifiga ko‘ra “CLIL ta’lim yondashuvi fan-til integratsiyalashgan ta’lim bo‘lib, bunda fan chet tili orqali o‘tiladi va fanni o‘qitish chet tilini rivojlantirishga xizmat qiladi[12]. Y.Poddubnyaning qayd etishicha, CLILning to‘rtta komponenti mavjud. Ular quyidagilar[13]:

1. Fan kontenti – o‘quv dasturiga mos bo‘lgan fan mundarijasi;
2. Muloqot – dars jarayonida chet tilida muloqot qilish;
3. Idrok etish – fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tushuna olish va hal eta olish;
4. Madaniyat – til bilan bog‘langan madaniy komponent.


O.Jarina esa “CLIL yondashuvining o‘ziga xos xususiyati shundaki, talabalar o‘rganish uchun tildan foydalanadilar va keyinchalik foydalanish uchun tilni o‘rganmaydilar”[14] deb ta’kidlaydi. E.Milexina integrativ yondashuvning asosiy

[12] Milovidova A.I. Optimizacija obuchenija juridicheskomu anglijskomu jazyku v vuze posredstvom vnedrenija jelementov tehnologii clil [Optimization of teaching legal English at a university through the introduction of elements of clil technology] / A.I. Milovidova // Vestnik universiteta imeni O.E. Kutafina (MGJuA) [Bulletin of the University named after O.E. Kutafin (Moscow State University)]. – 2018. – № 11(51). – P. 99–107. (101-bet)

[13] Поддубная Я. Н., Котов К. С., Слукина А. А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОДХОДА CLIL В РАМКАХ ПРОГРАММЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ГРАММАТИКЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА //Международный научно-исследовательский журнал. – 2022. – №. 7-3 (121). – С. 20

[14] Жарина О.А. Формирование коммуникативной компетенции посредством методики предметно-языкового интегрированного обучения / О.А. Жарина, А.Д. Инюточкина // Научная идея. – 2017. – № 2(2). – С. 80

xususiyatlari “...mashg‘ulotlarga yo‘naltirilganlikning xilma-xilligi, ta’lim muhitini rag‘batlantirish, talabalarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, faol va rivojlantiruvchi ta’lim, hamkorlik tamoyilini amalga oshirishdan iboratligini qayd etadi [15].” Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan xususiyatlarning barchasi ta’limning samaradorligiga o‘z hissasini qo‘shadi. Biz esa o‘z tadqiqotimizda integrativ yondashuv talabalarning qiziqishlarini oshirishga qanday ta’sir etishini yanada batafsil, integrativ darslardan namuna keltirgan holda asoslashga harakat qilganmiz. Tatariston Respublikasi chet tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish o‘quv-uslubiy laboratoriyasi metodisti L.Ivanova chet til o‘qituvchisining professional kompetensiyasini analiz qilishga integrativ yondashuvni quyidagicha tasvirlaydi. Ushbu model o‘qituvchining professional kompetensiyasini takomillashtirishda qanday yondashish lozimligini ifodalashga xizmat qilgan. Ko‘rib turganimizdek, o‘qituvchining professional kompetensiyasining rivojlanishiga integrativ yondashuv tizimli shaklda amalga oshirilishi lozim. Bunda quyidagilarga alohida e’tbor berish lozim: madaniy kompetentlik, Antropologik kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, aksiologik kompetentlik, muloqot kompetentligi. Ularning o‘zaro aloqadorligidan o‘qituvchining professional kompetentligi shakllanishiga erishiladi [16] (1-rasmga qarang):



1-rasm. O‘qituvchining professional kompetentligi

Germaniyalik tadqiqotchilar tomonidan nemis tili darslariga mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarni integratsiya qilish mavzusi bo‘yicha bir nechta modellar yaratilgan. Ularning birinchisi “Das Tuebinger Modell [17] ”(Tyubinger modeli) hisoblanadi. Tyubinger modeli madaniyatlarni

[15] Милехина Е.А. Предметно-языковое интегрированное обучение clil в вузе: цели, содержание, методология / Е.А. Милехина // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2021. – № 199. – С. 83

[16] Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish. – Toshkent: 2021. – 276 bet.

[17] Biechele M., Padrós A. Didaktik der Landeskunde. München: Langenscheidt, 2003, S.100, 101, 106.

qiyoslash modeli deyish ham mumkin, unda nafaqat til va mamlakatshunoslik bilan bog‘liq ma’lumotlar, balki sotsiologiya, siyosat va tarix haqidagi ma’lumotlar ham dars jarayoniga integratsiya qilinadi. Modelda talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Ushbu modelda nemis xalqining kundalik hayoti, mamlakatning ijtimoiy va siyosiy tuzulishi, turli hayot shakllari kabilarni aks ettirgan mavzularni o‘qitish ham nazarda tutilgan. Bu model bir necha Amerika Qo‘shma Shtattlarining universitetlarida amaliyotga joriy etilgan. Uning asosiy natijalarini *Typisch Deutsch*[18] kitobi o‘zida aks ettirgan.

Mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlar DACH [19] tamoyillariga asoslanib tayyorlanadi. Ya’ni ma’lumotlar Germaniya, Avstriya va Shveytsariyaning mamlakatshunosligiga oid ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Keyingi model ispan tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan bo‘lib, bu model *Escuela Oficial de idiomas* deb nomlanadi. Uning maqsadi ham Tyubinger modeli va DACH tamoyillarida belgilangan maqsadga o‘xshab ketadi, ya’ni nemis tilini o‘rgatish jarayoni mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarni integratsiya qilish va buning yordamida til o‘rganuvchilarning motivatsiyalarini oshirishga erishish. Bu modelning muhim tamoyillari sifatida quyidagilar keltiriladi:

- Nemis tilini o‘rganish asnosida Germaniya madaniyatining turli aspektlari bilan tanishish;
- Talabalarning yozish, o‘qib tushunish, gapirish va eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash hamda yaxshilash;
- Turli vaziyatlarda muloqot qilishga tayyorlash.[20]

Model mualliflari nemis tilini o‘rgatish rejadagi grammatik strukturani ham o‘rganishga mo‘ljallangan istalgan madaniy mavzuni aks ettirishi mumkin. Ular qat’iy belgilangan mavzular ro‘yxatidan foydalanishmagan. Ularning fikricha, o‘rganilayotgan grammatik mavzuga mos mamlakatshunoslikka oid ma’lumotni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari modelda mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarni nemis tilini o‘rganish jarayoniga motivatsion faktor sifatida integratsiya qilishda til o‘rganuvchining affektiv va kognitiv holati, ya’ni tushunish, chet tilida tushunish hamda madaniyatlararo muloqot qobilyati ham muhim ekanligi haqida ham fikr bildirilgan. Rus tadqiqotchichi D. Model bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini integrativ-modulli yondashuv asosida tayyorlash haqida o‘z fikrlarini bildirib, integrativ-modulli yondashuv asosidagi fanlar tabiiy ravishda asosiy (fundamental tayyorlash) va tanlov fanlari (chuqurlashtirilgan ta’lim)ga bo‘linishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, integrativ-modulli yondashuvning “asosiy maqsadi o‘quv jarayonini individuallashtirishni va umuman, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy malakasini shaxsiylashtirilgan shakllantirishni ta’minlashdir.[21]” U buni quyidagicha tasvirlaydi (2-rasmga qarang):

---

[18] www. typisch deutsch.de Murojaat sanasi.10.08.2022

[19] DACH – Germaniya, Avstriya va Shvetsariya davlarining bosh harfllari qisqartmasi

[20] Horno A. Landeskunde als Motivationsfaktor im DaF-Unterricht für spanische Studenten an der *Escuela Oficial de Idiomas* (EOI) von Salamanca. 2018. S.18

[21] Модель Д. Л. Модель реализации интегративно-модульного подхода к обучению дискретной математике будущих учителей математики в условиях непрерывного образования //Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Педагогика и психология. – 2021. – №. 1 (55). – С. 60.



2-rasm. Integrativ-modulli ta'lim gorizontali

Bundan tashqari, tadqiqotchi integrativ-modulli ta'lim yaxshi samara berishi uchun maktab-bakalavriat-magistratura-kasbiy faoliyat uzviylikda bog‘langan bo‘lishi kerakligini ham ta'kidlaydi. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalar esa maktab davrlarida ham chet tili sifatida ingliz tilini o‘rganishgan. Shundan kelib chiqqan holda ikkinchi chet tilini o‘rgatish jarayoniga yanada chuqurroq yondashish kerak bo‘ladi. Biz o‘z tadqiqotimizda integrativ yondashuv asosida talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini takomillashtirish modelini shakllantirishga harakat qildik. Integrativ yondashuv asosida talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini takomillashtirish modeli haqida gapirishdan oldin, model tushunchasiga ham biroz to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi integrativ yondashuv asosida nemis tilini o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat bo‘lib, uning yordamida nemis tili darslarini ikkinchi chet tili sifatida o‘rgatish samaradorligini oshirishiga erishilad. Model hamda modellashtirish o‘zaro aloqador tushunchalar bo‘lib, ular shunday izohlanadi:

“Model tadqiqotchi tomonidan asl obyekt haqida yangi bilimlarni olish uchun yaratilgan va asl nusxaning faqat muhim (ishlab chiquvchi nuqtai nazaridan) xususiyatlarini aks ettiradigan har qanday tabiat obyekti”[22]. Model bu tadqiqot ishida belgilangan maqsadlarga mos keladigan tadqiqot obyektiga ega bo‘lgan axborot tizimidir. “Modellashtirish tushunchasi amaliy ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan aniqlik bilan o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaning eng muhim tomonlarini yetarlicha aks ettirish jarayonini bildiradi”[23]. Modellashtirish – bu o‘rganish uchun tanlab olingan obyektni unga mos model sifatida taqdim qilish va u to‘g‘risida ma'lumot olish uchun model bilan tajriba o‘tkazishni anglatadi. Modellashtirish jarayonida model nafaqat vosita sifatida, balki modellashtirilgan obyektning vazifasini ham bajaradi. Integrativ yondashuv asosida nemis tilini asosiy mutaxassisligi ingliz tili bo‘lgan talabalarga ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish jarayonida nemis tilini chet tili sifatida o‘rgatishga mo‘ljallangan Sandra Evans, Angela Pude, Anna Breitsameter, Julia Braun-Podesch, Franz Spechtlar tomonidan yozilgan *Menschen* hamda A.Buscha va S.Szitalar tomonidan yozilgan *Begegnung* darsliklaridan foydalanilgan. Darslikning o‘zidan ham uning integrativ yondashuv asosida tayyorlanganini bilishimiz mumkin. Darslik mualliflari uni *Integratsiyalashgan kurs va ish kitobi* shaklida tayyorlashgan[24]. Bundan tashqari darslik uchun www.begegnungen-deutsch.de saytida qo‘shimcha ishlash uchun mashq va topshiriqlar ham tayyorlangan. Ushbu darsliklardagi mashqlarning

[22] Мурожаат санаси: 22.05.2021. https://tmetod.uz
[23] Мурожаат санаси: 13.03.2021. https://tmetod.uz
[24] Buscha A, Szita S. Begegnung A2+. SCHUBERT-Verlag, Leipzig, 2007. S.1

ahamiyatli tomoni shundaki, ularni online tarzda ham ishlash mumkin. O‘qituvchi o‘z darsiga kompyuter texnologiyalarini va online o‘rganish vositalarini integratsiya qilishi yordamida darslar nafaqat qiziqarli, balki natijaviy bo‘lishiga ham erishiladi. Doimiy bir xillikdan zerikkan talabalar bilan ishlashda uning natijasi yanada sezilarli bo‘lishi ko‘zga tashlandi. Chunki Begegnung darsligi uchun Schubert nashriyoti tomonidan tayyorlangan online topshiriqlar to‘plami o‘zining xilma-xilligi bilan talabalarni qiziqtirmay qolmaydi. Topshiriqlarni bajarib bo‘lganidan so‘ng, natijalar bilan shu zahoti tanishish, shu bilan birga qaysi javoblar to‘g‘ri, qaysi javoblar noto‘gri ekanligini ham bilib olish mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchining talabalr bilmini baholash jarayonidagi faoliyatini ham yengillashtiradi. Berilgan topshiriqlarni guruhlarga ajralgan holda bajarish va buni musobaqadek tashkil etish esa talabalarni til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshishiga yordam beradi. O‘qituvchi bu jarayonda yordamchi, maslahat beruvchi, moderator, kuzatuvchi va nazoratchi kabi rollarni bajarishi orqali namoyon bo‘ladi. Quyida ushbu darslikdan olingan turli topshiriqlar va ularning oline formatlari bilan tanishtirib o‘tmoqchimiz.

Darslikning A2 darajaga mo‘ljallangan qismining ikkinchi bo‘limi (Kapitel 2) “Freizeit und Hobby” ya’ni *qiziqish va hobbi* mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu bobda talabalar bo‘sh vaqt, musiqa, rasmga olish, kino va biografiya mavzulariga oid yangi so‘zlar bilan tanishishadilar. O‘zlarining bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazishlari va hobbilari nima ekanligi haqida gapirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga mayl fe’llari bilan bog‘liq grammatik strukturalarni ham o‘rganadilar.

Metodist olim I.Agofonovaning fikriga ko‘ra, integrativ yondashuvga asoslangan darslarda ta’limning an’anaviy va innovatsion usullarining o‘zaro birikishi o‘z aksini topishi kerak. An’anaviy darslar ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari kabi shaklda o‘tkazilsa, integrativ darslar o‘yin-dars, seminar-munozara, amaliy tadqiqot darslari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Integrativ darslar asosan munozara, guruhli yoki individual o‘quv mashg‘ulotlari va didaktik o‘yin sifatida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq[25]. Biz ham integrativ darslarni tashkil qilish uchun innovatsion ta’lim vositalaridan foydalanish kutilgan natijani berishiga tajribalarimiz natijasida amin bo‘ldik. I.Agofonova ta’kidlaganidek, guruhli o‘quv mashg‘ulotlari tarzida olib bordik. Ushbu mashg‘ulotlarni munozara va musobaqa tarzida tashkil qilishga harakat qildik. Talabalar bo‘sh vaqtga oid ish-harakatlarni ifodalovchi so‘zlarni (rasm chizmoq, avtomobil haydamoq, suratga olmoq, vinon ichmoq, cayohat qilmoq, musiqa tinglamoq, xarid qilmoq, sevib qolmoq, futbol o‘ynamoq, chet tilini o‘rganmoq, ovqat pishirmoq, tangalarni yig‘moq, do‘stlarnikiga bormoq, musiqa asbobini chalmoq, televizor ko‘rmoq, bog‘da ishlamoq, internetda ishlamoq) rasmlar bilan moslashtirib chiqishlari lozim. Bundan tashqari, bu topshiriqqa aloqador bo‘lgan online topshiriqlarni ham bajarishlari mumkin.

[25] Агафонова И.П. МЕТОДИКА ПРОБЛЕМНО-ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ СТУДЕНТОВ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО КОЛЛЕДЖА // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 1. – С. 103-108;

Kahoot! dasturi yordamida taqdimotlarni, wordcloud (mavzuga oid so‘zlarni jamlash), aqliy hujum uchun ma’lumotlarni ham tayyorlash mumkin. Bu o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. Tayyorlangan testlardan qayta-qayta foydalanish imkoni ham mavjud. O‘tilgan mavzularga qarab barcha mavzularga oid testlar bazasini shakllantirish ham maqsadga muvofiqdir. Barcha tayyorlangan testlar esa dasturning kutubxona qismida saqlanadi. Ko‘plab rus tadqiqotchilari ham chet tillarni o‘qitishda *Kahoot!* dan foydalanish yuzasidan o‘z fikrlarini bildirib o‘tishganligini kuztishimiz mumkin [26]. M.Mosinaning fikriga ko‘ra, *Kahoot!* yordamida til o‘rganuvchilarning til o‘rganishga nisbatan motivatsiyalarini oshirishga erishiladi. U o‘tkazgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, 100 foiz o‘quvchilar tajribadan so‘ng Kahootdan ta’lim jarayonida foydalanishni yoqlab ovoz berishgan [27]. Bundan tashqari ilova yordamida tashkil etilgan musobaqa yordamida talabalarning barchasini darsga jalb etish imkoni yuzaga kelgan. L.Pak esa dastur talabalarni darsda nazorat qilish tizimini takomillashtirish uchun juda foydali ekanligini, lekin bunga o‘xshash mobil ilova va dasturlardan ta’lim jarayonida, ayniqsa chet tillarni o‘qitishda foydalanish masalasini yoritishga yetarlicha ahamiyat berilmayotganini ta’kidlaydi[28]. Bu tadqiqotchi tomonidan ham ilovaning mootivatsion xususiyatga ega ekanligi haqidagi ma’lumotlar qayd etib o‘tiladi. Bizning mamlakatimizda Kahootdan foydalanish ayniqsa, jahon ta’lim standartlariga asoslanib tashkil etilgan Prezident maktablarida ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, Andijon shahridagi Prezident maktabi “Computer Sciense” fani o‘qituvchisi Sh.Nuraliyev [29] o‘zining “O‘quvchilar bilimini baholashda Kahoot o‘yin dasturidan foydalanish” nomli maqolasida quyidagicha yozadi. “Kahoot dasturidan darslarda foydalanish davrida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Dars jarayonida uning o‘zlashtirilishini nazorat qilish.

2. Darsning bir qismi o‘qilgach yoki o‘rganilgach, uning qay darajada o‘zlashtirilishini aniqlash va qisqa savol-javob o‘tkazish orqali talabalarning diqqatini dars mazmuniga jalb qilish.

3. Qisqa savol-javoblar natijasiga qarab tinglovchilarga tegishli ballar berish. O‘quvchilar tomonidan dars paytida to‘plangan ballar oraliq va yakuniy nazorat ballariga qo‘shilishi mumkin.

4. Dars paytida uni diqqat bilan tinglayotgan va faol ishtirok etgan talabalarni aniqlash hamda ularning bilimini baholash.

---

[26] Мосина М. А., Грошевик Е. В. Использование интернет-сервиса" kahoot!" при создании игрофицированной образовательной среды на уроке английского языка //Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков. – 2019. – №. 15. – С. 103-109.; Другова Д. В., Старкова Д. А. Применение платформы Kahoot! в обучении иностранному языку //Актуальные проблемы лингвистики и методики. – 2019. – С. 88-92.; Пак Л. Е., Данилина Е. К. Оптимизация системы контроля на занятиях по иностранному языку на базе мобильного приложения" Kahoot" //Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2019. – Т. 8. – №. 3 (28). – С. 197-199.;

[27] Мосина М. А., Грошевик Е. В. Использование интернет-сервиса" kahoot!" при создании игрофицированной образовательной среды на уроке английского языка //Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков. – 2019. – №. 15. – С. 106.

[28] Пак Л. Е., Данилина Е. К. Оптимизация системы контроля на занятиях по иностранному языку на базе мобильного приложения" Kahoot" //Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2019. – Т. 8. – №. 3 (28). – С. 197-199.;

[29] Nuraliyev Sh. O‘quvchilar bilimini baholashda Kahoot! o‘yin dasturidan foydalanish //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-240.

5. Ushbu dastur platformasini barcha fanlarga tatbiq qilish mumkin.[30]”

Biz ham muallifning fikrlariga to‘liq qo‘shilgan holda innovatsion raqamli texnologiyalarni chet til darslariga joriy qilish orqali nafaqat samaradorlik oshishi, balki til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham rivojlanishini ta’kidlamoqchimiz. Dunyo mamlakatlarining juda ko‘plab chet til o‘qituvchilari tomonidan foydalanib kelinayotgan keyingi internet xizmatlaridan biri *Padlet* online yozuv taxtasi hisoblanadi. Padletdan xorijiy tillarni o‘qitishda foydalish yuzasidan ham bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Kantsur, U.Chikurova[31], E.Galkina[32], T.Tyulenova[33], L.Gudkova[34], O.Vedler[35] larnining mavzuga bag‘ishlangan maqolalari e’tiborga molikdir. L.Gudkova va O.Vedler aynan nemis tilini o‘qitishda *Padlet*dan foydalanish yo‘llarini batafsil yoritishga harakat qilishgan. E.Galkina esa *Padlet*dan foydalanish orqali til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishga erishish yo‘llarini tadqiq qilgan. Mamlakatimiz chet til o‘qituvchilari tomonidan esa Padletning keng qo‘llanilishi ko‘zga tashlanmayotganligi barchamizga ma’lum. Bu esa mavzuni yanada kengroq tadqiq qilish lozimligini ko‘rsatadi. *Padlet* orqali talabalar o‘zlarining yozma ishlarini, audio matnlarini, video yozuvlarini yuklashlari va bir vaqtning o‘zida boshqalarning ham tayyorlagan ishlarini ko‘rish va fikr bildirish imkoniga ega bo‘ladilar.

“Integrativ yondashuv asosida nemis tilini o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari” deb nomlangan uchinchi bobning “Talabalarni nemis tiliga qiziqtirishda integrativ yondashuvdan foydalanish yuzasidan pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish” deb nomlangan birinchi bo‘limida o‘quv faoliyatida mavjud bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish integrativ yondashuvdan foydalanish sabablaridan biri sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Ayrim hollarda ba’zi talabalarning bir fandagi muvaffaqiyati, egallagan bilimi ikkinchi fandan olgan bilim va ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, talaba savodli, tez va to‘g‘ri o‘qiy olishi yoki matnni ko‘chirishi ham uning ona tilida qay darajada savodli ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Lekin bunday aloqadorkorlik til o‘rganuvchilarga ko‘rsatilmasa yoki umumiylik bo‘lmasa, bir fan rejasidagi mazmunga to‘g‘ri baho berish yordamida, bir mutaxassis alohida dars berishini yetarli bo‘lmasligini ko‘rishimiz mumkin. Bilamizki, olam son-sanoqsiz ichki aloqalar bilan o‘zaro bog‘langan. Shuning uchun bir muhim masalaga, boshqa ko‘pgina masalalarga tegmasdan, boshqalariga bog‘lamasdan to‘g‘ri yechim topish

---

[30] Nuraliyev Sh. O‘quvchilar bilimini baholashda Kahoot! o‘yin dasturidan foydalanish //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 239.

[31] Канцур А. Г., Чикурова У. Ю. Веб-инструмент «Padlet» в обучении английскому языку //Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков.–2020.–№. 16.–С. 110-114.

[32] Галкина Е. А. Возможности сетевого сервиса Padlet для организации групповой работы студентов с целью повышения их мотивации к обучению //Проблемы модернизации образовательных программ при переходе на актуализированные федеральные государственные образовательные стандарты (ФГОС ВО 3++) на основе профессиональных стандартов. – 2018. – С. 147-153.

[33] Тюленева Т. В., Сорокина Т. Г., Степкин Н. П. К ВОПРОСУ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНОЙ ОНЛАЙН-ДОСКИ PADLET ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ //Современные проблемы филологии и методики преподавания иностранных языков. – 2019. – С. 161-170.

[34] Гудкова Л. В. Использование онлайн-доски Padlet в процессе обучения немецкому языку в педагогическом вузе //Наука и образование в современном вузе: вектор развития. – 2021. – С. 40-43.

[35] Ведлер О. В., Касаткина Е. А., Перепечкина О. М. ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНЛАЙН-ДОСКИ PADLET НА УРОКАХ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА ПО ФГОС //ПРИОРИТЕТЫ ПЕДАГОГИКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. – 2018. – С. 33-35.

qiyin. Xuddi shunday o‘xshash solishtirishlar integrativga asos bo‘la oladi. Bir qator fanlarning dasturlarida «chorrahalar» bor, ya’ni umumiy muomala va masalalar bilan bir bo‘lgan, tez-tez bir hodisa, ya’ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir obyektni o‘rganiladi. Bularning barchasi integrativga misol bo‘la oladi. Lekin birlashtirish asosi juda chuqur mazmunga ega. Agar mutaxassis o‘zi dars berayotgan fandan shunday o‘zaro muloqotga oid joylarini aniqlasa, ular o‘z navbatida o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam berish mumkinligini bila olsa, qo‘yilgan maqsadga yetishish uchun uning texnologiyasini ishlab chiqishi kerak. Mutaxassis va talaba faoliyatining shakllanishini hisobga olsak, integratsiyalashgan dars sharoitida u tez-tez bahs va kelishmovchilikka sabab bo‘ladi. Tabiiyki, har bir guruhda talabalar guruhchalari bor. Ular bir-birlaridan xotira turlariga ko‘ra, qabul qilish, diqqat jihatidan farqlanadi. Ularning ba’zilarini mutaxassis olib borgan dars tezligi qoniqtiradi, kimgadir esa bu temp tezlik qiladi. Kimgadir darsda ishlatilgan jadval tushunarli bo‘lsa, boshqalari qayta-qayta izohlangandan keyingina tushuna oladi. Mustaqil tashkiliy ish talabalarning imkonlarini bir oz tenglashtiradi, chunki har biri o‘ziga xos qarorni tanlashga yo‘l izlaydi. Lekin albatta bir muammo qoladi. Bu muammo - talabaga qo‘yilgan maqsadni topish uchun qanday usul, vosita bilan qurollanish kerakligini tushuntirishdir. Darsning cheklangan vaqti ham, har bir talabaning topshiriqni bajarish vaqti ham mos emas, lekin ularning faoliyatini ta’minlovchi yagona shaxs – bu dars olib boruvchi mutaxassisdir. Integrativlashgan darsning xususiyati bu jarayonda 2 yoki 3, ba’zida undan ham ko‘p pedagoglar qatnashishi mumkinligida ko‘rinadi. Bunday integratsiyalashgan darsni o‘tish osonmi, murakkabmi? Ko‘pincha mutaxassislarga bog‘liq. Lekin, dars bu ishning muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integratsiyalashgan kursda amalga oshiriladi va natija omadli yoki omadsiz bo‘lishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan dars tushunchasi hamon bahsli bo‘lib qolmoqda. Integrativlangan darsning belgi-alomatlari qanday namoyon bo‘ladi?

1) Integrativlashgan kursning o‘zi yangi murakkab birlik bo‘lib, umuman boshqacha shaklda bo‘ladi hamda masalalarni aniq va samarali yechishga qaratiladi.

2) Ular 2 yoki 3 ta fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta mutaxassis yoki bir nechta o‘quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.

3) O‘rganishga qiziqish jarayonini faollashtirishning usullari, malaka va ko‘nikmalari ishlab chiqiladi. Mutaxassislar darsni birga yoki alohida o‘tkazishlari mumkin, lekin natijalar umumiy harakatlar orqali yechiladi.

Integrativlashgan darsning chegarasida mutaxassislar oldindan nima muhim, nima ikkinchi darajali ekanini aniqlashlari lozim. Talabalar bu darsda o‘z ishlarini lo‘nda va aniq ifoda etishlarini, og‘zaki savollarni to‘g‘ri tuzishlarini, o‘z-o‘zini nazorat qilishlarini, o‘z-o‘ziga baho qo‘yishni o‘rganishlari kerak. Mutaxassislar ana shunday hamkorlik asosida tuzilgan darslar integratsiyalashgan bo‘ladi, lekin ular asosida o‘rganilgan material bir-biri bilan hamohang bo‘lmaydi. Bunday darslarni integrativning birinchi darajasiga kiritish mumkin. Ikkinchi va uchinchi darajali integrativli eng keng tarqalgan darslardir. Ikkinhi daraja degan tushuncha ma’lumotli o‘quv fani hisoblanadi. Masalan: Takrorlash darslariga qo‘shimcha kiritish, mavzuga qo‘shimcha material tanlash. Uchinchi darajada solishtirish umumlashtirishda gap materialni o‘rganish masalalari bilan bog‘liqdir. Talabalar hodisa va obyektlarni solishtirish va taqqoslash bilan bog‘laydilar. Bunday darsda

2 ta mutaxassis ishtirok etishi mumkin. Eng chuqur deb integrativning to‘rtinchi darajasi olinadi. Talabalar faktlarni solishtira boshlaydilar, bitta hodisani, voqeani muhokama qilishadi, ular orasidagi aloqalarni aniqlaydilar, hamkorlikda o‘quv ko‘nikmasini birgalikda ishlab chiqadilar. Integrativlashgan dars maqsadi yuqoridagilarda qamrab olingan jarayon asosida nazorat qilinadi. Qo‘yilgan fikrlarni shakllantirish talabalarning talablariga, qiziqishlariga, intilishlariga ko‘ra rivojlantiriladi. Mutaxassislar va talabalar orasida taqsimlangan vazifalarni hisobga olinganda integratsiyalashgan darslar har xil shaklga ega, noan’anaviy interfaol metodlar, pedagogik innovatsiyalar va boshqalar. Shuning uchun mutaxassislar integrativ o‘qitish texnologiyalarini bilishlari lozim (3-rasmga qarang):



3-rasm. Zamonaviy internet xizmatlari (Kahoot, Padlet, Schubert) integratsiyasi asosida nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

Nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish metodik modeli Kahoot, Padlet va Schubert internet xizmatlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishga asoslanadi. Modelning asosiy maqsadi talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda nemis tilini o‘qitish samaradorligini yuksaltirishdan iborat.

Model tashkiliy tayyorgarlik, diagnostika, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va internet platformalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Kahoot tezkor baholash va testlarni tashkil etishda, Padlet hamkorlikdagi faoliyat va loyiha ishlarida, Schubert esa onlayn topshiriqlarni bajarish, grammatik mashqlar va natijalarni avtomatik baholashda qo‘llaniladi.

Model samaradorligi motivatsion, kognitiv, kommunikativ va faoliyat mezonlari asosida test, so‘rovnoma, kuzatish hamda o‘quv natijalarini tahlil qilish orqali baholanadi. Modelni amaliyotga joriy etish talabalarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi. Integrativ o‘qitish texnologiyalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- Integrativ fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi;
- Integrativ yondashuv talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etadi;
- Integrativ yondashuv talabalarning axborot olish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- Integrativ yondashuv talabalarning o‘qishga qiziqishini kuchaytiradi va ijodiy faolligini oshiradi;
- Integrativ darsning umumlashtirish vositalarini kengaytiradi.

“Talabalarni nemis tiliga qiziqtirishda integrativ yondashuvdan foydalanish yuzasidan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari” deb nomlangan uchinchi bobning ikkinchi bo‘limida jadval ko‘rsatkichlari yakuniy tajriba-sinov davrida tajriba guruhlarida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar nazorat guruhlari respondent-talabalarining natijalariga nisbatan ijobiy mazmun kasb etganligini anglatmoqda. Tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va respondent-talabalar soni bo‘yicha mos ravishda yuqoridagi kabi belgilashlar kiritgan holda tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi aniqligi nazorat guruhidan katta ekanligi tasdiqlandi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Baholash mezonlari

Jadval asosida tajriba va nazorat guruhi o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi H_1 gipoteza va unga muqobil bo‘lgan H_0 gipotezani tanlaymiz hamda quyidagi jadvalda aks ettiramiz (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Tajriba boshida talabalarning nemis tili darslarida integratsiyadan samarali foydalanish samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Talabalar soni	O’zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba guruhi	212	59	68	85
Nazorat guruhi	208	60	63	85
Jami	420	119	131	170

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti hamda Qo‘qon davlat pedagogika universitetining respondent talabalari ishtirokida o‘tkazilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tajriba-sinov maydonining tavsifi

Tajriba-sinov maydoni	Tajriba guruhlari
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti	Respondent talaba (jami – 420 nafar)
Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Qo‘qon davlat pedagogika universiteti	
Jami	420 nafar

Integratsiya asosida o‘tkazilgan darslar asosida nazorat ishlarini ijodiy ishlarni himoya qilish yoki zachyot tariqasida bir o‘quv materialining qismidan o‘tkazish mumkin. Dars davomida devoriy gazeta chiqarish yoki ilmiy maqola nashr ettirish mumkin. Qiziqarli olimpiada yoki imtihon, muammoli vaziyatni echish, tanlov, so‘hbat singari xilma xil darslar o‘tkazish talabalarni mustaqil ravishda bilim to‘plash, zavqli o‘qishga intilish va bilimdonlik darajasi ko‘tariladi. Integratsiya orqali o‘tkaziladigan darslar talabalarni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o‘tish jarayonida ularning asabiylashishi va aqliy charchog‘ini yuqotadi. Bu yo‘nalish

albatta mutaxassislardan muntazam qo‘shimcha tayyorgarlik, yuqori darajadagi bilimdonlik va o‘z kasbini mohir ustasi bo‘lishni talab qiladi. Ta’limda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzallik tomonlari va integratsiyalashgan ta`limning ahamiyati, bo‘lg‘usi mutaxassislarga integratsiyalashgan darslarni tashkil etishdagi psixologik-pedagogik jihatlari o‘rganildi, integratsiyalashgan nemis tili darslarni tashkil etishning eng maqbul yo‘llaridan foydalanishning o‘ziga xos metod va usullari ishlab chiqildi, nemis tili mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yaratilgan adabiyotlar o‘rganildi, nemis tilini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish eng maqbul yo‘llari tanlandi va ularni ta’limda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar berildi, bo‘lg‘usi mutaxassislar uchun integratsiyalashgan darslarni tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari natijalari aniqlandi, oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarning nemis tilida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlantirildi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishildi.

XULOSALAR

Olingan natijalar tahlili quyidagi xulosalarni ilgari surishimizga asos bo‘lib xizmat qildi:

1. Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirish jarayoni faqat til materiallarini o‘zlashtirish yoki an’anaviy mashg‘ulotlar mazmunini boyitish bilan cheklanmay, ta’lim mazmuni, raqamli muhit, interaktiv faoliyat, kommunikativ ehtiyoj va talabaning individual ta’limiy qiziqishlarini yagona pedagogik tizim doirasida uyg‘unlashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim platformalari nemis tilini o‘qitishning texnik vositasi sifatida emas, balki talabaning til o‘rganish jarayoniga qiziqishini shakllantiruvchi, uni muntazam faoliyatga undovchi va o‘quv jarayonining subyekti sifatidagi ishtirokini kuchaytiruvchi raqamli-didaktik muhit sifatida talqin qilindi. Natijada “qiziqish” tushunchasining motivatsion, emotsional, kognitiv va faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlari ta’lim platformalarining imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqligi konseptual jihatdan aniqlandi.

2. Talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirishda ta’lim platformalari integratsiyasi alohida metodik hodisa sifatida asoslandi. Bunda turli raqamli platformalar, multimedia materiallari, interaktiv mashqlar, video va audio resurslar, kommunikativ topshiriqlar hamda raqamli baholash vositalarini alohida-alohida qo‘llashdan ko‘ra, ularning didaktik maqsadga muvofiq yagona ta’lim jarayoniga birlashtirilishi muhimligi aniqlandi. Integratsiya jarayoni “platformadan foydalanish” darajasidan “platforma imkoniyatlarini metodik maqsadga yo‘naltirish” darajasiga olib chiqilib, uning asosiy mezoni texnologik yangilik emas, balki talabaning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va o‘quv faolligiga ta’siri ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

3. Tadqiqot davomida talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi. Jumladan, ta’lim mazmunining talaba ehtiyojlariga mosligi, raqamli resurslarning xilma-xilligi, interaktiv kommunikativ faoliyat, mustaqil tanlov imkoniyati, tezkor fikr-mulohaza,

natijalarni kuzatish va individual ta’lim sur’atini hisobga olish qiziqishning barqarorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida belgilandi. Shu asosda nemis tiliga qiziqish bir martalik motivatsion holat emas, balki ta’lim jarayonida muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlanadigan dinamik pedagogik hodisa sifatida qaraldi. Bu esa qiziqishni shakllantirishdan ko‘ra uni barqarorlashtirish, faollashtirish va ta’lim faoliyatiga aylantirish masalasiga metodik e’tiborni kuchaytirish imkonini berdi.

4. Ta’lim platformalarining didaktik imkoniyatlarini nemis tili ta’limi mazmuni bilan uyg‘unlashtirish asosida talabalarning qiziqishini rivojlantirishning integratsiyalashgan metodik modeli takomillashtirildi. Mazkur modelda ta’lim maqsadi, mazmuni, raqamli resurslar, interaktiv metodlar, kommunikativ topshiriqlar, mustaqil ta’lim faoliyati, refleksiya va diagnostik baholash komponentlarining o‘zaro funksional aloqasi ta’minlandi. Modelning o‘ziga xos jihati shundaki, platformalar ta’lim jarayoniga tashqi texnologik element sifatida kiritilmasdan, nemis tilini o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiruvchi va talabaning o‘quv faoliyatini boshqaruvchi metodik komponent sifatida belgilandi. Natijada raqamli vosita → interaktiv faoliyat → ijobiy o‘quv tajribasi → qiziqishning mustahkamlanishi → faol til o‘rganish kabi uzviy pedagogik bog‘liqlik shakllantirildi.

5. Tadqiqot natijalari ta’lim platformalaridan foydalanish talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning mustaqil ta’lim olish, raqamli resurslardan maqsadli foydalanish, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘zlashtirish natijalarini kuzatish va kommunikativ faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarini ham kengaytirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, talabaning o‘quv materialini qayta tanlash, topshiriqlarni individual sur’atda bajarish, multimedia kontentidan foydalanish va natijaga doir tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyatlari nemis tilini o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim platformalarining amaliy qiymati faqat darsni raqamlashtirish bilan emas, balki talabaning faol, mustaqil va ongli til o‘rganuvchiga aylanishi uchun sharoit yaratishi bilan belgilanadi.

6. Tadqiqotda talabalarning nemis tiliga qiziqishini aniqlash va uning rivojlanish dinamikasini baholashga doir diagnostik yondashuv takomillashtirildi. Bunda qiziqish faqat talabaning “nemis tilini yoqtirishi” yoki subyektiv fikri orqali emas, balki o‘quv faoliyatidagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish muntazamligi, mustaqil ta’limga moyilligi, raqamli resurslardan foydalanish faolligi, kommunikativ vazifalarga jalb etilishi va o‘quv jarayoniga emotsional-kognitiv munosabati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar asosida baholanishi maqsadga muvofiqligi asoslandi. Shu asosda talabalarning qiziqish darajasini aniqlash, uning o‘zgarishini monitoring qilish va ta’lim platformalaridan foydalanish samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi mezon va ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirildi.

7. Ta’lim platformalarini nemis tili mashg‘ulotlariga integratsiyalashning amaliy-metodik samaradorligi ta’lim jarayonida an’anaviy va raqamli ta’lim shakllarining maqsadli uyg‘unligi orqali oshirilishi aniqlandi. Platformalardan foydalanish o‘qituvchining an’anaviy pedagogik faoliyatini to‘liq almashtirish emas, balki uni yangi didaktik imkoniyatlar bilan boyitish vositasi sifatida qaraldi. Shu asosda o‘qituvchi raqamli kontentni tanlash, topshiriqlarni talabalarning

qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirish, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, natijalarni kuzatish va individual metodik koʻmak koʻrsatish kabi funksiyalarni amalga oshirishi zarurligi belgilandi. Bu yondashuv nemis tili ta’limida oʻqituvchining rolini axborot yetkazuvchidan raqamli ta’lim faoliyatini tashkil etuvchi va talabaning qiziqishini boshqaruvchi pedagogik fasilitator darajasiga olib chiqadi.

8. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ta’lim platformalarini integratsiyalash talabalarning nemis tiliga qiziqishini rivojlantirishda alohida texnologik vositalardan foydalanishdan koʻra samaraliroq boʻlgan tizimli va metodik jihatdan boshqariladigan raqamli ta’lim muhitini shakllantirish imkonini berishini koʻrsatdi. Ishlab chiqilgan nazariy-metodik yondashuv nemis tilini oʻqitishda qiziqishning shakllanishi, faollashuvi va barqarorlashuvini ta’lim mazmuni, raqamli platformalar, kommunikativ topshiriqlar, mustaqil faoliyat va diagnostik monitoringning oʻzaro aloqasi asosida ta’minlashga yoʻnaltirildi. Mazkur natijalar oliy ta’limda nemis tilini oʻqitish metodikasini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish, ta’lim platformalaridan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish hamda talabaning til oʻrganishga boʻlgan barqaror qiziqishini ta’minlashga xizmat qiluvchi metodik tizimni rivojlantirish uchun nazariy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12. Ped.37.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

ШАРИПОВА ЛАЙЛО МЕХРОЖИДДИНОВНА

ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В ПОВЫШЕНИИ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К ИЗУЧЕНИЮ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (немецкий язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2025.4.PhD/Ped11574.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Саттаров Уткир Уразалиевич** доктор философии по педагогике (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	**Ильясов Ибодулла** кандидат педагогических наук, доцент
	Саримсокова Дилафруз Мухаммаджоновна доктор педагогических наук (DSc), доцент
Ведущая организация:	**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «23» ноября 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 66783). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «5» ноября 2026 года.
(Протокол реестра рассылки за № 20 от «5» ноября 2026 года).

У.У. Жуманазаров
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

А.Э. Рустамова
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

А.Я. Нурмуратов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии по педагогике (PhD), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой образовательной практике повышение интереса студентов к изучению немецкого языка, цифровизация иноязычного образования, а также обеспечение интерактивности, индивидуализации учебного процесса и учебной активности посредством использования образовательных платформ рассматриваются как приоритетные направления современной методики преподавания иностранных языков. Вместе с тем недостаточная систематизация методических основ интеграции возможностей различных образовательных платформ с учебной мотивацией, индивидуальными потребностями и особенностями овладения немецким языком ограничивает эффективность образовательного процесса. В связи с этим разработка дидактической модели интеграции образовательных платформ, её методического обеспечения и механизмов развития учебной активности и мотивации студентов к изучению немецкого языка является актуальной практической задачей.

В последние годы в мировой научно-педагогической практике проводятся исследования, направленные на повышение интереса и внутренней мотивации студентов к изучению немецкого языка посредством цифровых образовательных платформ, мобильных приложений, мультимедийных ресурсов, геймификации и интерактивных заданий. Приоритетное внимание уделяется учебной мотивации, вовлечённости студентов в образовательный процесс, самостоятельному обучению, коммуникативной активности, цифровой компетентности и индивидуальным образовательным потребностям. Перспективными направлениями являются разработка адаптивных образовательных платформ, формирование устойчивой мотивации на основе интерактивного цифрового контента, мониторинг учебной активности и определение долгосрочной эффективности интеграции образовательных платформ.

В Узбекистане последовательно осуществляются системные реформы, направленные на повышение качества преподавания иностранных языков, в частности немецкого языка, широкое внедрение цифровых образовательных технологий в учебный процесс, а также усиление интереса и мотивации студентов к изучению иностранных языков. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: “Сегодня человечество уверенно вступает в новую эпоху цивилизации – эпоху искусственного интеллекта. В какой бы сфере ни велась деятельность, впереди окажется тот, кто первым проявит решительность и последовательность и добьётся конкретных результатов”[36]. В этой связи особую актуальность приобретают исследования, направленные на эффективное использование дидактических возможностей образовательных платформ в целях повышения интереса студентов к изучению немецкого языка, интеграцию различных цифровых ресурсов в

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr.https://president.uz/uz/lists/view/8582

единую образовательную среду, разработку методических подходов, учитывающих индивидуальные образовательные потребности и интересы студентов, а также их внедрение в практику высшего образования.

Настоящее исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых Законом Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года № ЗРУ-576 “О науке и научной деятельности”, Указами Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 29 октября 2020 года № УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”, от 6 июля 2022 года № УП-165 “Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы”, Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных организациях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране”, от 3 мая 2019 года № ПП-4306 “О мерах по организации непрерывной системы выявления одарённой молодёжи и подготовки высококвалифицированных кадров”, а также иными нормативно-правовыми документами, регулирующими данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности исследуемой проблемы. Анализ имеющихся научных публикаций по использованию интегративного подхода в образовательном процессе показывает, что вопросам применения инновационных образовательных технологий и проведения интегрированных занятий на уроках иностранных языков уделяется большое внимание на мировом уровне, и в данной сфере достигнуты значительные результаты.

В Узбекистане вопросам методики преподавания языков посвящены научные труды таких учёных, как Дж.Дж. Джалолов, Г.Х. Бакиева, М. Джусупов, Л.Т. Ахмедова, М.Т. Ирискýлов, Д.У. Хашимова, И.М. Тухтасинов, Г.Н. Ирмухамедова, Г.Т. Махкамова, У.У. Джуманазаров, А.Э. Рустамова, У.У. Саттаров, А.Я. Нурмуратов [37]и другие.

[37] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. (2012). Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ. – 120 с; Джусупов М. (2009). Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Москва: Русский язык за рубежом. – 230 с; Аҳмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. Ташкент. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T., 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Toshkent. Ped. fan. dok diss. (DSc).–T., 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах

Теоретико-методологические основы обеспечения интегративного подхода и педагогической интеграции в определённой степени отражены в научно-исследовательских работах зарубежных учёных и исследователей стран СНГ, в том числе М. Адамко, Н. Копиловой, В. Ширшова, Е. Сисоевой, И. Крестинского, М. Борознеца, З. Уколовой, Ф. Кирилловой, А. Тойкиной [38]и других.

